



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O'ZBEK
TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI

“ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR MEROSINING SHARQ DAVLATCHILIGI VA MADANIYATI RIVOJIDA TUTGAN O'RNI”

mavzusidagi III xalqaro ilmiy-nazariy va
amaliy anjuman materiallari



2026-yil 12-fevral





**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI
VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

O‘ZBEKISTON YOZUVCHILAR UYUSHMASI

BOBUR NOMLI XALQARO JAMOAT FONDI

**ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR
MEROSINING SHARQ DAVLATCHILIGI VA
MADANIYATI RIVOJIDA TUTGAN O‘RNI**

III xalqaro ilmiy-nazariy va amaliy anjuman materiallari

Toshkent – 2026

SOMATIK LEKSIKA TUSHUNCHASI VA UNING MAQOLLARDA QO‘LLANISHI THE CONCEPT OF SOMATIC LEXICON AND ITS USE IN PROVERBS

Nazarov Qobilbek Narzulla o‘g‘li

Tayanch doktorant

Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti

E-mail: qobil.nazarov.1995@mail.ru

ORCID: 0000-0002-4273-1202

DOI: [10.52773/tsuull.conf.2026./XYBG3552](https://doi.org/10.52773/tsuull.conf.2026./XYBG3552)

Annotatsiya. *Ushbu maqolada somatik leksikaning turli olimlar tomonidan o‘rganilganligi ko‘rib chiqiladi va shu asosda somatik birliklar umumiy guruhlariga ajratiladi. Shuningdek, turli tizimga kiruvchi maqollar tarkibida somatik birliklarning qanday vazifalarni bajarishi tahlil qilinadi.*

Kalit so‘zlar: *somatizm, maqol, osteonimik leksika, splanxonimik leksika, somonimik leksika.*

Annotation. *This article examines how somatic lexis has been studied by various scholars, and on this basis, somatic units are classified into general groups. In addition, the functions performed by somatic units within the structure of proverbs belonging to different language systems are analyzed.*

Keywords: *somatism, proverb, osteonymic lexis, splanchnonymic lexis, somonymic lexis.*

Har qanday milliy dunyo manzarasida inson markaziy o‘rinni egallaydi. Insonning dunyodagi mavjudligi muammosini tahlil qilishda ilmiy tadqiqotlar shubhasiz uning jismoniy mavjudligi masalalariga ham e‘tibor qaratishadi. Shu sababli inson tanasi ko‘plab tabiiy va gumanitar fanlarning faol tadqiqot obyekti hisoblanadi. Uni anatomiya, fiziologiya, antropologiya, psixosomatika kabi fanlar o‘rganadi. Zamonaviy gumanitar fanlarda ham inson tanasining turli jihatlarini o‘rganishga bo‘lgan qiziqish juda yuqori. Insonning tana qismlarini, xususan, somatizmlarni o‘rganish va tasvirlashda tilshunoslik yetakchi o‘rinlardan birini egallaydi.

Tilshunoslar somatizm tushunchasini turlicha talqin qiladilar. Keng ma’noda somatizm inson tanasining biror qismini bildiruvchi, ya’ni “inson tanasining bir qismi” degan to‘g‘ridan-to‘g‘ri nominativ ma’noga ega bo‘lgan leksema sifatida tushuniladi [Gordi, 2002: 13]. Tana qismlarining nomlari ko‘chma ma’noda qo‘llanilganda, insonlar o‘z fikr va tuyg‘ularini yanada aniqroq va to‘liq ifodalash imkoniga ega bo‘ladilar. Buning sababi, bir tomondan, bunday ko‘chma ma’nolar muayyan xalq madaniyatida ildiz otgan bo‘lsa, boshqa tomondan, ular tilning obrazlilikini kuchaytiradi. Tor ma’noda

esa, “somatizm — bu inson yuzining yoki butun tanasining har qanday mazmunli belgisi, holati yoki harakati” deb ta'riflanadi [Vereshagin, 1990: 160].

Y. Bashkatova fikricha, inson tanasi qadim zamonlardan beri dunyoni anglash va idrok etish manbai bo'lib kelgan: insonning o'ziga oid bilim va kuzatuvlari tashqi borliqqa ko'chiriladi. Inson tanasining qismlariga berilgan nomlar, ularga xos xususiyat va belgilar – bu nomlanishdan tashqari, madaniyat uchun muhim bo'lgan ma'nolarni ham o'z ichiga oladi va natijada madaniyatning somatik kodi shakllanadi [Bashkatova, 2017: 239 – 246]. Olim shu tariqa somatik birliklarning lingvokulturologiyadagi ahamiyatini tadqiq etadi.

Somatizm – bu tilshunoslikda inson tanasi qismlariga oid so'z va iboralarni, ularning ma'noviy va metaforik qo'llanilishlarini o'rganadigan termin. “Soma” yunoncha “tana” degan ma'noni anglatadi, shuning uchun somatizm inson tanasi bilan bog'liq lug'aviy birliklarni ifodalaydi. Bu atama ko'pincha lingvistik va kognitiv tahlillar doirasida ishlatiladi, chunki u til va madaniyatning birlashgan nuqtasini o'rganishga imkon beradi. *Somatizm* atamasi ilk bor F.O.Vak tomonidan qo'llangan. U “somatizmlar frazeologiyaning eng qadimgi qatlamlaridan biriga tegishli va har qanday til so'z boyligining eng ko'p ishlatiladigan qismini tashkil qiladi” deya qayd etadi [Vak, 1964: 23].

Somatizm tushunchasi 80-yillarda V.M.Mokiyenkoning asarida ham uchraydi. U bu termini inson tanasi qismlari yoki ularning funksiyalari bilan bog'liq bo'lgan so'z va frazeologik birliklarni o'rganishda qo'llagan. Mokiyenko somatizmlarni xalq ijodida, jumladan, maqollar, matallar va boshqa frazeologik birikmalarda keng qo'llanilishini tahlil qilgan [Mokiyenko, 1980, 207]. Ushbu asarda Mokiyenko slavyan tillaridagi somatik frazeologizmlarni qiyosiy tahlil qilgan va ularning semantik xususiyatlarini, shuningdek, xalqlarning madaniy va kognitiv tafakkuri bilan bog'liqligini ko'rsatib bergan. Aynan shu ishda somatizmlarning frazeologiya doirasidagi o'rni va ahamiyati birinchi bor atroflicha tahlil qilingan.

Somatizmlarni tahlil qilgan yana bir olim B.Xajumyanning fikricha, somatizmlar tana a'zolari va organlarining vazifalari aniq bo'lgani, shuningdek, ularni allegorik talqin qilishning osonligi tufayli frazeologik birliklar hosil qilish sohasida yuqori mahsuldorlikka ega [Xajumyan, 2019: 53].

Somatizm tushunchasining lug'atlarda berilishi va uning doirasiga qanday mikromaydonlar kirishini tahlil qilish orqali bu tushuncha haqida tizimli ma'lumotga ega bo'lish mumkin.

Somatik birliklarni tasniflashda tilshunos olim N.M.Shanskiy somatik lug'atning uch guruhini aniqlagan:

- erkak va ayol tanasining o'ziga xos xususiyatlari bilan bog'liq tananing umumiy belgilari yoki inson tanasining qismlari;
- inson tanasining hayotiylikini va hayotiy funksiyalarini ta'minlaydigan ichki organlarning belgilari;
- inson tanasi va uning a'zolari moddasining belgilanishi [Shanskiy, 2017: 104].

E.M.Vereshagin va V.G.Kostomarov somatik tilni quyidagi beshta hodisadan iborat deb hisoblaydi:

- imo - ishoralar - kuzatuvchining ko'z o'ngida ongli ravishda bajariladigan tananing asosiy harakatlari ifodasi;
- yuz ifodalari - mazmunli yuz harakatlari ifodasi;
- pozalar – ma'lum vaqt davomida saqlanib turadigan inson tanasining mazmunli pozitsiyalari hodisasi - qisqa yoki uzoq
- ruhiy holat va harakatlarning turli alomatlarini hodisasi [Vereshagin, 1990: 45].

Somatik leksika — bu inson tanasiga oid barcha nomlarni o'z ichiga oluvchi muhim semantik qatlamdir. U turli leksik guruhlarga bo'linadi. Har bir guruh alohida semantik maydon hosil qiladi. R.Y.Mugu nomlanish obyektiga ko'ra somatik leksikani quyidagi guruhlarga ajratadi:

I. Somonimik leksika. Bu qatlam inson tanasi va uning tashqi qismlarini bildiruvchi umumiy leksik birliklarni o'z ichiga oladi. Eng katta va eng faol ishlatiladigan qism hisoblanadi va quyidagicha tarmoqlanadi:

- umumiy tana nomlari: *tana, gavda, qomat*;
- bosh va uning qismlari: *bosh, yuz, peshona, burun, og'iz, quloq, ko'z*;
- bo'yin va gavda: *bo'yin, ko'krak, orqa, qorin, yelka*;
- yuqori a'zolar: *qo'l, tirsak, kaft, barmoq*;
- pastki a'zolar: *oyoq, son, tizza, tovon, poshna*.

II. Osteonimik leksika. Bu qatlam skelet va suyak tizimiga terminlarni qamrab oladi. Ushbu qatlamda ilmiy va tibbiy terminlar ko'p uchraydi va quyidagicha tarkibga ajratiladi:

- suyaklar tizimi umumiy nomlari: *skelet, suyak*;
- bosh suyaklari: *bosh suyagi, jag' suyaklari, peshona suyagi*;
- gavda suyaklari: *umurtqa, qovurg'a, ko'krak suyagi*;
- qo'l suyaklari: *yelka suyagi, tirsak suyagi, kaft suyaklari*;
- oyoq suyaklari: *son suyagi, tizza suyagi, tovon suyaklari*.

III. Splanxonomik leksika. Bu qatlam ichki organlarni bildiruvchi leksik birliklar hisoblanadi va bunga tibbiy terminlar va xalq orasida keng tarqalgan nomlarni kiritish mumkin. Splanxonomik leksikaga quyidagi guruhlar kiritiladi:

- ichki a'zolar umumiy nomlari: *ichki a'zolar, ichki qismlar*;
- hazm tizimi organlari: *oshqozon, jigar, ichak, me'da osti bezi*;
- nafas olish organlari: *o'pka, traxeya, bronxlar*;
- siydik va jinsiy tizim organlari: *buyrak, siydik pufagi, bachadon, tuxumdonlar*.

IV. Qon aylanish tizimi leksikasi - bu qon tomirlari, yurak va boshqa qon aylanish tizimi a'zolarini bildiruvchi so'zlar: *yurak, arteriya, vena, qon tomiri, kapilyar*.

V. Sezgi organlari leksikasi. Bu qatlam inson organizmidagi sezgi organlarini (ko'rish, eshitish, hid bilish, ta'm bilish, sezish) bildiruvchi leksik birliklar hisoblanadi va quyidagi guruhlarga bo'linadi:

- organlar ko'rinishida bo'linishi:



- a) ko‘rish organlari: *ko‘z, qorachiq, kiprik;*
- b) eshitish organlari: *quloq, parda;*
- c) hid va ta‘m organlari: *burun, til, tomoq;*
- d) sezgi organlari: *teri, barmoqlar, kaft.*

VI. Inson organizmidagi kasalliklar, xastaliklar va holatlarni bildiruvchi leksika. Bu qatlam quyidagicha guruhlanadi:

- kasalliklar va xastalik nomlari: *gripp, shamollash, isitma, o‘lat, yurak urishi, saraton, qandli diabet*
- organizm holatlari va tashqi belgilar: *titroq, terlash, yo‘tal, qusish, burun oqishi, bosh og‘rishi, tana qizishi* [Mugu, 2003: 14].

Yuqorida somatik leksikaning turli olimlar tomonidan tasnif etilganligini ko‘rib chiqdik. Ushbu tasniflarni umumlashtirgan holda quyidagi guruhlariga asosan maqollardagi somatik birliklar tadqiq etildi.

1. Inson tanasining tashqi qismini bildiruvchi somatizmlar. Bu guruhga quyidagi somatik birliklarni kiritish mumkin:

- a) inson tanasining bosh qismini tashkil etuvchi somatizmlar: *bosh, miya, peshona, soch, ensa, burun, ko‘z, qosh, quloq, lab, og‘iz, tish, tomoq, til, yanoq, kiprik, qorachiq, qanshar, iyak, yuz;*
- b) inson tanasining yuqori qismini nomlovchi somatizmlar: *bo‘yin, yelka, ko‘krak, bel, bilak, tirsak, kaft, kift, barmoq, qo‘l, qorin, kurak, qo‘ltiq, tirnoq;*
- c) inson tanasining pastki qismini nomlovchi somatizmlar: *oyoq, tizza, son, tovon;*
- d) inson tanasini umumiy nomlovchi somatizmlar: *gavda, tana, qomat, bo‘y.*

2. Insonning ichki qismlarini bildiruvchi somatizmlar: *halqum, o‘pka, yurak, taloq, jigar, oshqozon, buyrak, jig‘ildon, tomir, suyak, ilik.*

3. Ma‘lum tana a‘zosining harakati natijasida hosil bo‘ladigan pozalar: *musht, quchoq, bag‘ir.*

4. Insonga xos mavhum tushunchalar: *qalb, ko‘ngil, dil, diyda.*

Turli tizimga kiruvchi tillardagi maqollarda yuqorida sanalgan somatik birliklar faol tarzda qo‘llanilgan. Maqollarda nazarda tutilgan majoziy ma‘noning holatiga qarab somatizmlar sinonimik qatoridan eng munosibi tanlanishi tabiiy hol. Ayrim o‘zbek xalq maqollarida ham buning namunasini ko‘rish mumkin. Masalan, *yuz – o‘tdan issiq* maqolida *yuz* leksemasi *issiq* leksemasi bilan bog‘liqlikda ijobiy holatni ifodalamoqda. *Afting qiyshiq bo‘lsa oynadan o‘pkalama* [Mirzayev, 2005: 23] maqolida neytral ma‘noni ifodalovchi *yuz* leksemasi o‘rnida *aft* leksemasi salbiy baho munosabatini ifodalashga xizmat qilmoqda. Soma komponentli maqollarning semantik va struktur tomonlariga to‘xtalsak, ularning sodda so‘z holida, qo‘shma so‘zlar tarkibida, iboralar tarkibiy qismi sifatida kelganligini ko‘rish mumkin. Masalan, *haqiqatning yuzi – yorug‘, qo‘li – uzun* [Mirzayev, 2005: 46] maqolida *yuzi yorug‘* va *qo‘li uzun, nomarddan yordam so‘rama, yuzingga solar* [Mirzayev, 2005: 76] maqolida *yuziga solmoq, odam – gavhar, qo‘li – gul* maqolida *qo‘li gul* iboralari

qo‘llangan. *Yaxshi gapga quloq sol, yomon gapga uloq sol* [Mirzayev, 2005: 42] maqolida *quloq solmoq* qo‘shma fe‘li ishtirok etgan. Shuningdek, ayrim maqollarda somatik birliklarning juft holda qo‘llanilishiga guvoh bo‘lamiz. Masalan, *boqimsiz bog‘ tog‘ bo‘lur, yurak-bag‘ring dog‘ bo‘lur* [Mirzayev, 2005: 12] maqolida *yurak-bag‘ir, o‘z uyimning xushligi — oyoq-qo‘limning bo‘shligi* [Mirzayev, 2005: 130] maqolida *oyoq-qo‘l* juft so‘zlari ma‘noning yanada kuchli, baho munosabatining yanada yaqqolroq ifodalanishiga xizmat qilmoqda.

Turli tizimdagi tillarda somatik birliklar ishtirok etgan maqollar bir nechta uslubiy vazifalarni bajarishi mumkin va buni quyida tahlil qilamiz:

1. *Nutqni ixchamlashtirish vazifasi.* Ma‘lumki, maqollar kommunikatsiya jarayonida muhim vosita hisoblanadi va katta hajmli matnlar o‘rnini birgina maqol bosa olishi mumkin. Masalan, *och qornim, tinch qulog‘im* [Mirzayev, 2005: 46] maqoli muammo yoki zarar kelishi mumkin bo‘lgan joydan o‘zini tiyish mazmunidagi gap qisqa va ixcham ifoda etilishi mumkin.

2. *Obrazli ifodalash vazifasi.* O‘zbek xalq maqollarida zoonimlar va somatizmlar juda ko‘p obrazli ifodalarning hosil bo‘lishiga asos bo‘ladi. Masalan, *ko‘z qo‘rqoq, qo‘l botir* [Mirzayev, 2005: 55] maqolida *ko‘z* somatizmi imkonsizlik *qo‘l* imkoniyat sifatida obrazlashadi.

3. *Baholash vazifasi.* Baho funksiyali maqollar so‘zlovchining vaziyatga, nutq subyektiga nisbatan ijobiy yoki salbiy munosabatini to‘laqonli ifodalashda muhim vosita hisoblanadi. Masalan: *olma pish, og‘zimga tush* [Mirzayev, 2005: 196], *yegan og‘iz uyalar* [Mirzayev, 2005: 155], *ko‘z tuproqqa to‘yar* [Mirzayev, 2005: 148] kabi soma komponentli maqollar so‘zlovchining tinglovchiga nisbatan salbiy munosabatini, uni tanqid qilish jarayonida ishlatiladi.

4. *Emotsionallik vazifasi.* O‘zbek tili paremiologik tizimida ba‘zi maqollar so‘zlovchining xursandlik, xafalik, mensimaslik singari emotsional munosabatlarni ifodalab keladi. Masalan: - *Odam qo‘lidan keladigan ishga harakat qilishi kerak. Ko‘rpaga qarab oyoq uzatavering* (T.Malik. “Shaytanat”). Ushbu parchada *ko‘rpangga qarab oyoq uzat* [Shorahmedov, 1987: 157] maqoli tanbeh berish bilan birga mensimaslik munosabatini ifodalamoqda.

Somatizmlar (tanaga oid tushunchalar) xalq maqollarida tahlil qilinishi o‘ziga xos ahamiyat kasb etadi. Ushbu birliklar xalqning mentaliteti, turmush tarzi va dunyoqarashini aks ettiradi. Maqollardagi *bosh, ko‘z, qo‘l, oyoq* kabi tana qismlari bilan bog‘liq ifodalar orqali xalqning hayotiy falsafasini va qadriyatlarini o‘rganish mumkin. Somatizmlar tilning semantik boyligini va metaforik imkoniyatlarini o‘rganishda asosiy manba bo‘lib xizmat qiladi. Ular orqali tilning ma‘no qatlamlarini va milliy o‘ziga xosliklarini tahlil qilish mumkin. Somatik leksikani tahlil qilish orqali insonning fikrlash va dunyoni idrok qilish xususiyatlari aniqlanadi. Masalan, *qo‘l qo‘lni taniydi* [Mirzayev, 2005: 60] yoki *ko‘rpangga qarab oyoq uzat* kabi maqollar xalqning qarashlarini



kognitiv model sifatida yoritadi. Shuningdek, somatizmlar xalqning milliy madaniyati bilan bog'liq bo'lib, maqollar orqali ular qanday yashaganini, qanday muammolarga e'tibor qaratganini va o'z muammolarini qanday hal qilganini anglash imkonini beradi. Masalan, ingliz tilidagi *busy hands are happy hands* (*band qo'llar, baxtli qo'llar*) [Doyl, 2012: 115] maqoli XX asrning o'rtalarida yoshlarning erta ishlashiga oid targ'ibot matnlarida undovchi sifatida ishlatila boshlagan.

Somatizmlar lingvokognitiv tahlilda til, madaniyat, tafakkur va idrok tushunchalarining o'zaro bog'liqligini o'rganish uchun muhim o'rin tutadi. Ular orqali insonning dunyoni idrok etish usullari, ijtimoiy qadriyatlari va hayot tajribasi tahlil qilinadi. Bu jihatlar, ayniqsa, somatizmlarning turli tizimdagi tillarga tegishli maqollarning o'rganishilishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar:

1. Горды, М. Соматическая фразеология современного русского и польского языков. 1. изд. – Щецин: Волумина, 2010. – 364 с.
2. Верецагин Е.М., Костомаров В.Г. Язык и культура: Лингвострановедение в преподавании русского языка как иностранного. Методическое руководство. – 4-е изд., перераб. и доп. – М.: Русский язык, 1990. – 251 с.
3. Башкатова Ю.А. "Символические признаки соматических концептов". – Сибирский филологический жур. 2, 2014. – 239-246 с.
4. Вакк Ф.О. Соматические фразеологии в современном эстонском литературном языке. Автореф. дисс... канд. филол. наук. – Таллин, 1964. – 30 с.
5. Мокиенко В.М. Славянская фразеология. – М., 1980. – 207 с.
6. Хаджумян. Б.С. – Соматические Фразеологизмы – Издательство ЕГУ.– Ереван, 2019. – 370 с.
7. Шанский Н.М. Лексикология современного русского языка. – 2017. –168 с.
8. Мугу Р.Ю. Полисемантизм соматической лексики (на материале русского немецкого языков): Автореф... канд. филол. наук. – Майкоп, 2003. – 24 с.
9. Mirzayev T., Musoqulov A., Sarimsoqov B. O'zbek xalq maqollari. – “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati, 2005. – 257 b.
10. Shomahmudov Sh., Shorahmedov Sh. Nega shunday deymiz. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1987. – 352 b.
11. Ch. Doyl, W.Mieder, Fred R.Shapiro. The Dictionary of modern Proverbs.– New Heaven